UO‘K 37.016:786.2

FORTEPIANO IJROCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL MASHQINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Zamirzoda Sitora A’zam qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti, “Musiqa ta’limi va san’at” mutaxassisligi magistranti.

parizodaumedjonova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada fortepiano ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘quvchilarning uyda mustaqil shug‘ullanishini tashkil etish metodikasi yoritilgan. Mashqni rejalashtirish, uning sifatini oshirish va ota-onalar bilan hamkorlik masalalari ko‘rib chiqilgan. Maqola fortepiano o‘qituvchilari va musiqa maktablari o‘quvchilarining ota-onalari uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: fortepiano, ijrochilik ko‘nikmalari, mustaqil mashq, metodika, diqqat, ota-onalar hamkorligi, o‘qituvchi nazorati.

МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ ЗАНЯТИЙ УЧАЩИХСЯ ПРИ РАЗВИТИИ ИСПОЛНИТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ ИГРЫ НА ФОРТЕПИАНО

Аннотация. В статье раскрывается методика организации домашних самостоятельных занятий учащихся при развитии исполнительских навыков игры на фортепиано. Освещены вопросы планирования занятий, повышения их качества и сотрудничества с родителями. Статья может быть полезна преподавателям фортепиано и родителям учащихся музыкальных школ.

Ключевые слова: фортепиано, исполнительские навыки, самостоятельные занятия, методика, внимание, сотрудничество с родителями, контроль педагога.

METHODOLOGY OF ORGANIZING STUDENTS’ INDEPENDENT PRACTICE IN DEVELOPING PIANO PERFORMANCE SKILLS

Abstract. The article describes a methodology for organizing students’ independent practice at home in developing piano performance skills. It considers planning of practice, improving its quality and cooperation with parents. The article may be useful for piano teachers and for parents of music school students.

Keywords: piano, performance skills, independent practice, methodology, attention, cooperation with parents, teacher supervision.

KIRISH. Ta’lim jarayonini sifatli tashkil etish va o‘quvchining mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir [1]. Fortepiano ta’limida bu vazifa alohida ahamiyatga ega, chunki o‘quvchi vaqtining asosiy qismini ustoz bilan emas, uyda yolg‘iz o‘tkazadi. Dars haftada ikki marta bo‘lsa, qolgan kunlardagi natija o‘quvchining mustaqil mashqiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pincha o‘quvchi nimani, qancha va qanday mashq qilishni bilmaydi, ota-ona esa musiqiy ishda unga yordam bera olmaydi. Natijada darsda ustoz bir xil kamchilikni qayta-qayta tuzatadi, o‘quvchi esa asta-sekin qiziqishini yo‘qotadi.

Mashqning qiyinligi fortepiano pedagogikasida qadimdan ma’lum. XVII asrda yashagan M.Sen-Lamber bolalar o‘rganishni katta istak bilan boshlasa ham, uchinchi yoki to‘rtinchi darsdan so‘ng qiyinchilikka duch kelib, hafsalasi pasayishini yozgan [2, 20–22-b.]. Shuning uchun o‘quvchiga mashq qilishni o‘rgatish, uni to‘g‘ri rejalashtirish va nazorat qilish o‘qituvchining muhim vazifasidir.

Maqolaning maqsadi fortepiano ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda o‘quvchilarning mustaqil mashqini tashkil etish metodikasini, ya’ni uning oddiy va amaliy yo‘llarini ko‘rsatishdir.

ASOSIY QISM. G.G.Neygauz ijro jarayonida iroda va diqqat qancha ko‘p ishtirok etsa, natija shuncha samarali bo‘lishini, passivlik ortgani sari asarni o‘zlashtirish muddati cho‘zilishini yozadi [3]. Z.Muhammadjonovaning fikricha, darsdan tashqari mustaqil shug‘ullanish bir qator ijobiy ko‘nikmalarni shakllantiradi, ammo bu uchun o‘qituvchining doimiy e’tibori zarur. Hamma o‘quvchi ham cholg‘u oldida o‘tirib mashq qilish katta aqliy mehnat ekanini tushunmaydi, bu esa ishonchsizlikka va charchoqqa olib kelishi mumkin [4, 29-b.].

Mashq tartibli bo‘lsa, o‘quvchi tez charchamaydi. Muhammadjonova mashq davrini boshqa mashg‘ulotlar va o‘yinlar bilan almashtirib turishni tavsiya etadi, chunki bu loqaydlikdan saqlaydi, charchashga yo‘l qo‘ymaydi va kuchni to‘g‘ri taqsimlashga o‘rgatadi. Ayrim o‘qituvchilar bir kun ichida gamma, etyud, polifoniya va pyesa uchun necha daqiqa ajratish kerakligini aniq ko‘rsatib beradi [4, 30-b.]. Amaliyotda bu rejani o‘quvchining kundaligiga yozib borish qulay. Mashq kuniga bir uzoq vaqtda emas, bir necha qisqa bo‘lakka bo‘linsa, bolaning diqqati so‘nmaydi.

Mashq qiziqarli bo‘lishi ham muhim. G.X.Alimatova ansamblda ijro etish va jo‘rnavozlik ko‘nikmalari talabalarning kursga bo‘lgan qiziqishini oshirishini qayd etadi [5]. Demak, o‘qituvchi o‘quvchining yoshi va tayyorgarligiga mos, unga yoqadigan asarni repertuarga kiritsa, uydagi mashq ham jonlanadi.

Uydagi mashqni muayyan tartibda o‘tkazish qulay. Avval qo‘llar va barmoqlar yengil mashqlar bilan tayyorlanadi, so‘ng gamma va texnik mashqlar, undan keyin etyud bajariladi, oxirida pyesa ustida ishlanadi. Yangi asar kichik bo‘laklarga bo‘linadi, har bir bo‘lak alohida o‘rganiladi, keyin bo‘laklar birlashtiriladi. Mashq oxirida o‘quvchi eng yaxshi chiqqan bo‘lagini yana bir bor ijro etsa, u mashqdan yaxshi kayfiyat bilan turadi va ertasi kuni mashqqa osonroq o‘tiradi. Bunday tartib har bir o‘quvchi uchun o‘qituvchi tavsiyasiga tayanib belgilanishi kerak.

O‘z ijrosini eshitib turish ham foydali. O‘quvchi mashq paytida ijrosini telefonga yozib olib, keyin tinglasa, xatolarini o‘zi topadi va eshitish nazorati rivojlanadi. Bu usul ayniqsa kattaroq yoshdagi o‘quvchilarga mos keladi. O‘qituvchi darsda shu yozuvni birgalikda tinglab, o‘quvchining o‘z fikrini so‘rashi mumkin. Shunda o‘quvchi mashqni majburiyat sifatida emas, o‘z ishi sifatida qabul qiladi.

Mustaqil mashqda eng ko‘p uchraydigan xato asarni boshidan oxirigacha qayta-qayta chalishdir. Bunda o‘quvchi qiyin joylarda to‘xtamaydi, xatoni takrorlayveradi va noto‘g‘ri odatni mustahkamlab qo‘yadi. Qiyin joyni ajratib olib, sekin va qismlarga bo‘lib o‘rganish ancha samarali. Yana bir xato mashqni darsdan bir kun oldin boshlashdir. Fortepiano ko‘nikmasi tez-tez va oz-ozdan mashq qilinganda barqaror bo‘ladi, shuning uchun har kun qisqa mashq haftada bir marta uzoq mashqdan yaxshiroq.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun mashq vaqti qisqa bo‘lishi kerak. Mashqni ota-onaning ko‘rsatmasi bilan bola ikki yoki uch qismga bo‘lib bajarsa, u charchamaydi. Mashq oralig‘ida qisqa tanaffus qilish, qo‘llarni bo‘shashtirish va o‘rindiq hamda cholg‘u oldida to‘g‘ri o‘tirishni tekshirish ham foydali. O‘qituvchi darsda mashqni qanday bajarishni o‘zi ko‘rsatib bersa, bola uyda ham shunday ishlaydi. Katta yoshdagi o‘quvchilarda esa mustaqillikka ko‘proq o‘rin beriladi, ular mashq rejasini o‘qituvchi bilan birga tuzadi va o‘z natijasini o‘zi baholashga o‘rganadi.

Uzoq vaqt mashq qilish hali yaxshi natija bermaydi. R.Qodirov diqqatni musiqiy faoliyat samaradorligining muhim sharti deb hisoblaydi [6]. A.A.Shmidt-Shklovskaya texnika mexanik emas, musiqiy jihatdan ma’noli bo‘lishi kerakligini, ko‘p soatlik mexanik takrorlash esa diqqatni susaytirib,

eshitish tasavvurini kambag‘allashtirishini ta’kidlaydi [7]. Uning fikricha, aniq qo‘yilgan maqsad diqqatni jamlaydi, mas’uliyat va mustaqillikni tarbiyalaydi [7, 14-b.]. Shu sababli har mashq oldidan o‘quvchi nimaga erishmoqchi ekanini bilishi kerak. Masalan, bugun chap qo‘lni toza va tekis chalish yoki asarning bir lavhasini xatosiz ijro etish maqsad qilib olinadi. Sekin tempda, eshitib va o‘ylab chalish tez, lekin e’tiborsiz chalishdan afzal.

Mustaqil mashqning samaradorligi oiladagi muhitga ham bog‘liq. Muhammadjonova ota-onalar bola mashq qilishi uchun tinch sharoit yaratib berishi, mashq jarayoniga zarurat bo‘lmasa aralashmasligi va ijrodagi nuqsonlarni sezsa o‘qituvchiga xabar qilishi kerakligini yozadi. Ota-onalar bolani vaqtida mashqqa chorlab, nazorat qilishi lozim, musiqiy jihatlar esa o‘qituvchi nazoratida bo‘lgani ma’qul [4, 30-b.]. Ustoz va ota-ona bolaga bir vaqtda ikki xil yo‘nalishda saboq bermasligi kerak. Rag‘batlantirish ham ehtiyotkorlik va sezgirlik talab etadi [8], shuning uchun bolaning kichik yutug‘ini o‘z vaqtida maqtash, kamchiligini esa mehr bilan tushuntirish yaxshi natija beradi.

XULOSA. Fortepiano o‘quvchisining mustaqil mashqi uning ijrochilik ko‘nikmalari qanchalik rivojlanishini belgilaydi. Mashq tartibli rejalashtirilsa, boshqa mashg‘ulotlar bilan almashtirib turilsa va o‘quvchining qiziqishiga mos asarlar tanlansa, bola tez charchamaydi. Mashq sifati uchun aniq maqsad qo‘yish, diqqatni jamlash va sekin, o‘ylab chalish muhim. Ota-onalar tinch sharoit yaratib, mashqni nazorat qilsa, musiqiy jihatlarni esa o‘qituvchiga qoldirsa, mustaqil mashq samarali bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz). – URL: https://lex.uz/docs/5013007

2. Алексеев А.Д. Из истории фортепианной педагогики: Руководства по обучению на клавишно-струнных инструментах (от эпохи Возрождения до середины XIX века): хрестоматия. – Киев: Музична Україна, 1974.

3. Нейгауз Г.Г. Об искусстве фортепианной игры: Записки педагога. – 5-е изд. – М.: Музыка, 1987. – 240 с.

4. Muhammadjonova Z. Fortepianoda chalishni o‘rgatish uslubiyoti: madaniyat, san’at kollejlari hamda akademik litseylar uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Yangi nashr, 2006. – 96 b.

5. Alimatova G.X. Umumiy fortepiano. Fortepiano uchun estrada va jaz kompozitsiyalari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, 2009. – 97 b.

6. Qodirov R.G‘. Musiqa psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Musiqa, 2018. – 87 b.

7. Шмидт-Шкловская А.А. О воспитании пианистических навыков. – 2-е изд. – Л.: Музыка, 1985.

8. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat: darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b.